

ALISHER NAVOIY - TARIXIMIZ OYNASI

*Ilmiy rahbar: Ingliz tili va adabiyoti fakulteti
òqituvchisi: T.M.Gapparova*

*Yozuvchi: Xolmirzayeva Dilnozaxon
Xayrullojon qizi, Ingliz tili va adabiyoti
fakulteti 4-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada siz Mir Alisher Navoiy hayoti va ijodiga doir ummumiy ma'lumotlar bilan tanishib chiqishingiz va chuqurroq bilimga ega boliishingiz mumkin.

Tayanch tushunchalar: Xamsachilik, Mantiq ut-tayr, davlat arbobi, ruboiy tahlili, Haft avrang, Hiloliya.

*Agar bu zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak,
mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir.
Özbekiston Respublikasi 1- Presidenti I. Karimov*

Alisher Navoiy nafaqat soz mulkining sultonini, balki jahon adabiyotiga ham sezilarli ta'sir korsatgan ijodkordir. Ul zot yaratgan asarlar hozirgi kunda yoshlar uchun ilm durdonasi bolib xizmat qilmoqda. Bu asarlarni oqish orqali ozimizga ham ma'nani, ham ruhan ozuqa olamiz. Alisher Navoiy yoshligidanoq ilm-fan bilan shugullanishni sevgan. Ba'zi manbalarda keltirilishicha, besh yoshida maktabga borgan va uch tort yoshlarida she'r yod olib kop insonlarni hayratga solgan¹. Taft shahrida Alisher mashhur "Zafarnoma" tarixiy asari muallifi, shoir Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi. Alisher 10-12 yoshlaridan she'r yoza boshlagan.

¹ Umumiyo'rta ta'lim mакtablarining 5-sinf uchun darslik. II qism / S. Ahmedov, B.Qosimov, R. Qo'chqorov, Sh. Rizayev. – T.: «Sharq», 2015. – 92 b.

Tarixchi Xondamirning yozishicha (Xondamirning olim sifatida shakllanishida ulug' mutafakkir shoir Mir Alisher Navoiyning o'rni katta bo'lib, u bo'lajak olimga, o'zining boy kutubxonasidan foydalanishga ruxsat bergan, shu bilan birga ilmiy ishlariiga rahbarlik qilgan. U yoshlik chog'idayoq Alisher Navoiy qo'liga kelgan, dastlab uning kutubxonasida kutubxonachi, keyinroq esa mudir bo'lib ishlagan)², yosh Navoiyning iste'dodidan mamnun bo'lган mavlono Lutfiy, uning:

Orazin yopqoch, ko'zumdan sochilur har lahza yosh,
Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'ach quyosh.

matla'li g'azalini tinglab: "Agar tuyassar bo'lsa edi, o'zimning o'n-o'n ikki ming forsiy va turkiy baytimni shu g'azalga almashtirardim..." degan. Bundan kordinib turibdiki Navoiy bolalik choqlaridanoq ota iqtidorli va talantli inson bolgan.

Otasi - G'iyosiddin Muhammad temuriy beklaridan bòlib saroyda ishlardi. Uni G'iyosiddin Kichkina deb ham atashardi. Adabiyot va san'atga yuksak muhabbatı bòlgani bois, kechalari uyida turli xil bazmlar va she'rxonlik kechalari qilib turardi. Yosh Alisher bunday kechalarni zavq bilan tinglab òtirar va unda ösha zamonning mashhur shoirlari Lutfiy, Fuzuliy, Atoiy gazallari öqib eshittirilar edi. Yosh bòlishiga qaramay bu shoirlarning gazallarini eshitish orqali yod olib borardi.

Bo'lajak shoir Sa'diy Sheroziyning „Guliston“. „Bo'ston“, asarlarini, Farididdin Attorning „Mantiq ut-tayr“ („Qush mantig'i“)ni so'ngsiz ishtivoq bilan o'qigan. Ayniqsa, qushlar tilidan keltirilgan hikoyatlar va ularning chuqur mazmuni Alisherning o'y-xayolini tamom egallab olgan. Ertayu kech faqat shu kitobning mutoolasi bilan mashgul bòlganligi bois, ota-onasi farzandining qobiliyatidan xavotirga tusha boshlaydi va u kitobni yosh Alisherdan yashirib qoyishga majbur bòladi. Yana ba'zi manbalarda, bu kitobni bir sopol qoshqorga almashtirgani aytildi. Ya'ni otasi G'iyosiddin Muhammad bu kitobni olib, uning örniga sopol qoshqorni öynashga bergen.

² Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi mas'ul xodimi: Bòri Qodirov maqolasidan

U shoir sifatidagina tanilib qolmasdan, buyuk davlat arbobi sifatida ham faoliyat kòrsatgan. Yoshligidan birga ulgaygan ham yaqin dòsti ham davlat rahbari bòlgan Husayn Boyqaroning saroyida turli yillarda turli lavozimlarda xizmat kòrsatgan. 1469-yillarda muhrdorlik, 1472 -yillarda vazirlik va 1487-yillarda Astrobod hokimligi lavozimiga tayinlanadi. Sultonga yaqin odam bòlish oson emasdi shu sababdan Navoiyning boshiga kòpgina qora kunlar kelgan. Ayniqsa, Navoiyning tògri sözligi va oddiy xalqni kòproq öylab qilgan harakatlari boshqa vazirlarga yoqmasdi. Natijada Navoiyga kòpgina tuhmat va böhtonlar qilishgan. Navoiy saroyda yurgan kezları kòp azob chekkan va saroyda ishlashdan oddiy xalq bilan yashashni ma'qul kòrgan. Shu sabab shu ruboyni yozgan:

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,
El anga shafiq-u mehribon bo'lmas emish.

Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulg'a tikondek oshiyon bo'lmas emish.

Ya'ni bu yerda shoir özini oltin qafasdagi tòtiga, saroyni esa oltin qafasga öshatilmoqda. Saroy qanchalik chiroyli, qanchalik hashamdar bòlishiga qaramay u yerda özini qulay his qilolmagan shoir özini tilla qafasdagi Erkin va ozodlikni xohlovchi qushga öxshatgan. Bulbul- oddiygina, kichkina qush, lekin u ozodlikni xohlaydi. U oltin qafasda mahbuslikda yashashdan kòra tikonlar orasida hur bòlib yashashni ma'qul kòradi. Chunki bulbulning oshiyoni tikonzordur. Alisher Navoiy ham

özini ozodligi xohlagan, biroq podshoh Husayn Boyqaroni yaqin döstini yonida bòlishini istagan. Navoiy döstini shunday yaxshi kòrganki, uning taxtga chiqishi munosabati bilan "Hiloliya" (yangi chiqqan oy) asarini yozgan va döstiga topshirgan. Bundan sevingan Boyqaro shoirni yekasiga zarli tòn yopgan va özining sevimli otiga mindirib jilovdorlik qilgan.

Shoirning turkiy adabiyotga ulkan hissa qoshgan . U birinchi bòlib turkiy tilda Xamsa yozgan ijodkordir. Bilamizki, Xamsa yozishning bir necha qoidalari bor:

1)5 ta dostondan tashkil topishi;

2)Birinchi doston pand-nasihat ruhidagi tarbiyaviy-axloqiy masalalarga bag'ishlanishi;

3)Ikkinchi doston Xusrav va Shirin mojarolariga atalishi;

4)Uchinchi doston Layli va Majnun muhabbatini asos qilib olishi;

5)To'rtinchi doston Bahromshohga bag'ishlanishi;

6)Beshinchi doston Iskandar haqida yozilishi shart.

Xamsachilikka asos solgan dastlabki ijodkor Nizomiy Ganjaviy hisoblanadi. U özining Xamsasi "Panj ganj" (Besh xazina) deb nomlagan. Ganjaviy ozarbayjonlik ijodkor bòlib, 1170-1204-yillar orasida ya'ni 34 yil davomida 5 dostonni yaratgan. Bu asarlar shoirning vafotidan sòng bir yaxlit holatga keltirilgan va "Panj ganj" nomi bilan mashhur bòlgan. Ular shunday nomlangan:

1. „Maxzan ul-asror“ („Sirlar xazinasi“) 1180-yil hukmdor Bahromshohga bag'ishlab yozilgan. Bu asar falsafiy-axloqiy masalalarga bag'ishlangan bo'lib, 18 bob, muqaddima va xotimadan iborat.

2. „Xusrav va Shirin“ 1181-yilda yozilgan. Bu doston hukmdor To'g'rul II topshirig'i bilan yozilgan.

3. „Layli va Majnun“ 1188-89-yillarda Shirvonshoh Axsitan topshirig'iga ko'ra yaratiladi.

4. "Haft paykar" („Yettigo'zal“) 1197- yilda yozilgan. Doston 4600 baytdan iborat bo'lib, hukmdor Alouddin Ko'rpa Arslon topshirig'i bilan yaratilgan.

5. Sònggi doston „Iskandarnoma“ deb ataladi. Doston hajman 10500 bayt bo'lib, 1197-1204-yillar oralig'ida yozilgan³.

Undan sòng yana ikki shoir: Xusrav Dehlaviy hamda Abdurahmon Jomiy ham özlarini xamsa maydonida sinab kòrdilar va xalq uni sevib qabul qildi.

3.Arxiv.uz 2012-2023

Abdurahmon Jomiy Xamsasi özining besh emas yetti dostondan iboratligi bilan qolgan xamsa dostonlaridan ajralib turadi. Negaki Jomiy xamsachilikka qòl urar ekan, birinchi bòlib besh doston („Tuhfat ul-ahror“ („Erkinlar tuhfasi“), „Sabhat ul-abror“ („Yaxshilar tasbihi“), „Yusuf va Zulayho“, „Layli va Majnun“ „Xiradnomayi Iskandariy“)ni yaratdi. Ammo uning serqirra ijodi tufayli qalami töxtab qolmadı bu dostonlarni yanada tòldirish va mazmunan boyitish maqsadida ijodini davom ettirib,

„Silsilat uz-zahab“ va „Salomon va Absol“ asarlarini qoshib qoydi. Endilikda u besh emas yetti dostonidan iborat bolib, unga yangi nom berish zarur edi. Shundan song unga "Haft avrang" (yetti taxt) deb nom berildi. Bu esa koplab muhokamalarga sabab boldi. Chunki u xamsa yozish qoidalaridan biroz chetda edi. Ya'ni aniqroq aytadigan bolsak, u yetti kitobdan iboratligi va Xusrav va Shirin I bagishlanmagani bilan alohida ajralib turardi.

Navoiy juda kam fursatda 1483-1485 yellarda 2 yil davomida yaratiladi va u ozing Xamsa yozishini "Farhod va Shirin" dostonida shunday e'tirof etadi:

"Ermas oson bu maydon ichra turmoq, Nizomiy panjasiga panja urmoq"

Bu misralarda Navoiy ustoz Ganjaviyning xamsasiga ishora qilib ottgan. "Nizomiy panjasasi" iborasi Nizomiy Ganjaviy yaratgan "Panj ganj" nomli xamsani anglatgan va bunga javoban oz xamsasini yaratgan.

Navoiy xamsasining tarkibi: " Hayrat ul-abror"(,,Yaxshi kishilarnin hayratlanishi“), „ Farhod va Shirin“, "Layli va Majnun", „Sab'ai sayyor“, „Saddi Iskandariy“dostonlaridan iborat.

Reference:

1. Юсупова Д. Узбек мумтоз адабиёти тарихи (Алишер Навоий даври), Академнашр, -Т.,2013.
2. Umumi o'rta ta'lif maktablarining 5-sinfi uchun darslik. II qism / S. Ahmedov, B.Qosimov, R. Qo'chqorov, Sh. Rizayev. – T.: «Sharq», 2015. – 92 b.
3. Навоий М.А.Т , "Фан", -Т.1997.-Б.219.
4. O.Madayev "Навоий сухбатлари", Oqituvchi, -T., 2018.-Б158
5. "Sharq yulduzi" jurnali, 1985 yil, 9-son
6. ABDUQODIR HAYITMETOV. «XAMSA»NING YARATILISH JARAYONI (1985)
7. Arxiv.uz sayti.